

YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONLARI

Abdullajonova Akifa Shuhratjon qizi
NamDChTI, filologiga va tillarni o'qitish:
ingliz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi
akifaabdullajonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari, ularning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatiga bag'ishlangan. Unda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish istiqbollari yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlari: Yangi O'zbekiston, ta'lim islohotlari, qonun, oliy ta'lim, konsepsiya, innovatsion tuzilmalar, ta'lim muassasasi.

Abstract: This article is devoted to the processes of modernizing the education system in New Uzbekistan, their essence, and practical significance. It highlights the educational reforms being implemented, the introduction of digital technologies, and the importance of modern pedagogical approaches. The research results contribute to revealing the prospects for the development of the education sector in New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, educational reforms, law, higher education, concept, innovative structures, educational institution.

Аннотация: Данная статья посвящена процессам модернизации системы образования в Новом Узбекистане, их сущности и практическому значению. В ней освещаются реализуемые реформы в сфере образования, внедрение цифровых технологий, а также значение современных педагогических подходов. Результаты исследования способствуют раскрытию перспектив развития сферы образования в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, реформы образования, закон, высшее образование, концепция, инновационные структуры, образовательное учреждение.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, uning ta'lim tizimi qay darajada zamonaviy va raqobatbardosh ekaniga bog'liq. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv hamda intellektual salohiyat har bir davlatning kuchi va kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu

nuqtayi nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqaro standartlarga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirmoqda.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda sifat va mazmun jihatidan sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli ta'lim" dasturining keng joriy qilinishi, o'quv jarayonlariga IT texnologiyalarining integratsiyasi, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning kengayishi ta'lim mazmunini butunlay yangicha bosqichga ko'tardi. "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyilining ommalashuvi esa yoshlarning o'z ustida uzluksiz ishlashi uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Bugungi kunda ta'lim yoshlar uchun nafaqat bilim manbai, balki ularning ijtimoiy faolligi, shaxs sifatida o'sishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim start maydoniga aylanmoqda. Shu sababli Prezident tashabbuslari asosida pedagoglar malakasini oshirish, o'quv infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash hamda akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

UNICEF, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ta'limning inklyuzivligi, gender tengligi, barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish masalalariga alohida urg'u berilmoqda. Bu esa kelajak avlodning sifatli bilim olishi, o'z salohiyatini erkin namoyon qilishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Umuman olganda, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar – bu nafaqat zamon talabi, balki yangi O'zbekistonning ertangi kunini shakllantirish, intellektual jamiyat qurish va inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omilidir.

Ta'limning har bir bosqichida chuqur islohotlarning davom etishi mamlakat taraqqiyotining poydevori sifatida xizmat qiladi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashtirish jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish

hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017-yil 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "Yoshlarga oid Davlat dasturi", yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, yaqinda prezidentimiz tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrda 840-son qarori bilan magistratura mutaxassisligi hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash tartibiga o'zgartirishlar kiritildi.

Prezident va nomli davlat stipendiyalariga talabgorlarning axborot texnologiyalari, O'zbekiston tarixi, xorijiy tillar bo'yicha bilim hamda ko'nikmalari Bilim va malakalarni baholash agentligida (hududlar bo'yicha) maxsus test sinovlarini topshirishlari belgilandi. Bunda:

- test sinovlari bo'yicha o'tish ballining quyi chegarasi to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 55 foizi hisoblanadi;
- to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 55 foizidan past ball to'plagan, shuningdek, test sinovlariga qatnashmagan talabgorlar Prezident va nomli davlat stipendiyalariga tavsiya etilmaydi;

- baholash natijalaridan norozi bo'lgan talabgorlarni shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha 5 nafardan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi;
- Prezident va nomli davlat stipendiyalariga talabgorlarning (magistratura mutaxassisliklari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) hujjatlari va erishgan natijalari mazkur qaror bilan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida baholanadi;
- talabgorlarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "HEMIS" axborot tizimi orqali shakllantiriladi.

Shuningdek, nomli davlat stipendiyalari sovrindori bo'lgan talabalarga muayyan ta'lim bosqichida nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida qayta ishtirok etishiga ruxsat etilmaydi.

Bizning institutda ham ko'plab ta'lim islohotlari amalga oshirilmoqda. Namangan davlat chet tillari institutida ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va tashkiliy boshqaruv izchil ravishda takomillashtirildi. Jami 3569 nafar talaba, 97 nafar professor-o'qituvchi ishtirokida ta'lim jarayoni samarali tashkil etildi. Ilmiy salohiyat 43 foizga yetkazilib, 5 nafar fan doktori va 16 nafar falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ta'lim mazmunini boyitish maqsadida 17 ta darslik, 16 ta o'quv qo'llanma tayyorlandi, 86 ta o'quv auditoriyasi zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlandi. Ilmiy faoliyat doirasida 323 ta ilmiy maqola va tezislar chop etildi.

Talabalar bilan ishlash masalasi doimiy e'tibor markazida bo'ldi. "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri", "Ma'rifat maydoni", "Intellectual haftalik", "Besh tashabbus olimpiadasi" kabi loyihalar yoshlarning bilimini, fuqarolik mas'uliyatini va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish yo'nalishida ham aniq natijalarga erishildi. 2024–2025 o'quv yilida 60 nafar magistratura bitiruvchisi to'liq ish bilan ta'minlandi. Bakalavriat yo'nalishi bo'yicha esa 2025–2026 o'quv yilida ilk bitiruvchilarni tayyorlash jarayoni izchil davom etmoqda. Bu holat ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini yaqqol tasdiqlaydi.

Xalqaro hamkorlik aloqalari ham kengaydi. Udmurt davlat universiteti bilan "3+2" qo'shma ta'lim dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. AQSh, Koreya Respublikasi, Yaponiya va Qirg'iziston oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirildi. Xitoy tomoni tashabbusi bilan Konfutsiy markazini tashkil etish bo'yicha ishlar olib borildi.

Keyingi yillarda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar ko'p chilikni xursand qilishi turgan gap, chunki ko'plab universitetlarning ochilishi (xususan davlat va xususiy) mamlakatimiz yoshlari uchun ham ajoyib imkoniyatlar yaratyapti bu birinchi navbatda mamlakatimiz yoshlarini to'liq qamrab olishga sharoit yaratadi. Mamlakatimizda 30 yoshga kirmaganlar aholini 60%ni tashkil etadi. Universitetlarning ko'payishi bu o'z navbatida ular ortasida gi raqobatni oshiradi va talim sifatini ham ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Bu oddiy qilib

aytganda talab va taklif qonunining bir ko‘rinishi universitetlarning ko‘payishi ishchi kuchining ortishiga va ular o‘rtasidagi raqobatni oshishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida malakali ishchi kuchini yuzaga keltiradi. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar bu bir yoki ikki yilni emas balki butun kelajakni o‘ylab qilingan o‘zgarishlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘RQ-637-son Qonuni. –T., 2020 yil, 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori. – T., 2017 yil, 20 aprel.
3. Xalq ta’limi vazirligi nashrlari va metodik qo‘llanmalari
4. <https://in-academy.uz>
5. <https://hujjat24.uz>